



O'ZBEKISTONDA SITRUS MEVALARNI YETISHTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TASHKILIY RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

dots. Qurbonov Shovqi
Toshkent amaliy fanlar universiteti
ORCID: 0000-0002-7805-6202
shovqiqurbonov@gmail.com

Annotatsiya. Respublikada mintaqaning sitrus mevalar yetishtirishdagi hissasining 1 foiz ortishi sitrus mevalar yetishtirish hajmiing 0,09 foiz ortishini ta'minlaydi. Mazkur ta'sir darajasi o'suvchan natijani ta'minlasada, ancha kichik miqdorni ifoda etadi.

Kalit so'zlar: eksportbop limon, sanoatbop, korrelyatsion, muddatli prognoz, mintaq, energiya ta'minoti.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ПУТИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СТИМУЛЯЦИИ ВЫРАЩИВАНИЯ ЦИТРУСОВЫХ КУЛЬТУР В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

доц. Курбанов Шовки
Ташкентский университет прикладных наук

Аннотация. Увеличение доли региона в производстве цитрусовых в республике на 1% обеспечивает рост общего объема производства цитрусовых на 0,09%. Хотя данный уровень влияния демонстрирует положительную динамику, он выражен в относительно незначительных масштабах.

Ключевые слова: экспортный лимон, промышленное значение, корреляционный анализ, краткосрочный прогноз, регион, энергетическое обеспечение.

ORGANIZATIONAL METHODS OF STATE STIMULATION FOR CITRUS CULTIVATION IN UZBEKISTAN (CASE STUDY OF KASHKADARYA REGION)

assoc. prof. Kurbanov Shovki
Tashkent University of Applied Sciences

Abstract. An increase of 1% in the region's share in citrus production in the republic leads to a 0.09% growth in the total volume of citrus production. Although this level of impact shows a positive trend, it is expressed on a relatively small scale.

Keywords: export lemon, industrial significance, correlation analysis, short-term forecast, region, energy supply.

Kirish.

Ma'lumki mamlakatimizda sitrus mevalar yetishtirishda uzoq yillik dehqonchilik tajribasi shakllangan bo'lib, bu asosan limon yetishtirish bilan bog'liq holda ilmiy-nazariy asoslari yaratilganligi, uning yangi navlarini yaratishga oid ilmiy tadqiqotlar ko'lami kengayib borayotganligi, uning agrotexnologiyasi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar hamda amaliy tajribalar takomillashib, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishga urg'u qaratilayotganligi bilan izohlanadi.

Sohada davlat tomonidan ma'muriy aralashuvlarning cheklanishi, nodavlat boshqaruv tuzilmalarining rivojlanishiga huquqiy asoslarning ishlab chiqilishi, o'zini o'zi boshqarish shakllarining rag'batlantirilishi, ular tomonidan bildirilayotgan takliflar hamda yo'nalishlarning ijobiy qabul qilinishi kabi instrumentlar shular jumlasidandir.

Olib borilayotgan agrar islohotlar negizida esa aynan shu kabi sag'lom kayfiyat shakllangan bo'lib, bu nafaqat yuqori tuzilmalarda balki quyi bo'g'inlarda ham agrobiznes tashabbuskorligi munosib rag'batlantirilmogda. Agrar tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularning xar biri bilan individual ishlashda nodavlat boshqaruv tuzilamalarining o'rni beqiyos bo'lib, bu agrar siyosatni yurituvchi davlat boshqaruv organlariga nisbatan ancha samarali ekanligi rivojlangan davlatlar tajribasida o'zini namayon etgan.

Natijada, respublikada 2018-2019 yillarda 46 mln AQSH dollari miqdoridagi xorijiy kredit liniyalari jalb qilinib, 730 gektar maydonda zamonaviy limonzorlar barpo etildi, limon yetishtiriladigan issiqxonalar umumiy maydoni 1221 gektarga yetkazildi. Shuningdek, ryepublikada limonchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, ilg'or va zamonaviy resurs tejoychi texnologiyalarni qo'llash asosida yuqori sifatli sanoatbop va eksportbop limon yetishtirish hajmini oshirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini keng joriy etish maqsadida 2020 yil 19 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4610-sonli qarori bilan «Limon yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar» uyushmasi «Sitrus, subtropik va tropik o'simlik yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar» uyushmasi deb qayta tashkil etilib, unga eksport qilish borasida bir qator imtiyozlar taqdim etildi.

Adabiyotlar sharhi.

Bu faoliyat ko'lamining talqin qilishdagi adabiyotlar mazkur mavzuda faoliyat olib borayotganim bilan ahamiyatli sanaladi. Shu bilan birga tadqiqotimizda xorijiy olimlar ilmiy izlanishlari chuqur ahamiyatga ega shularda ingliz iqtisodchisi Keynesning (1936) mashhur "The General Theory of Employment, Interest and Money" yildagi kitobida keyinchalik bu kitob rus tiliga "Общая теория занятости процента и денег" (1978). Olimning qarashlarida ish bilan bandlik nazariyasida; davlat investitsiyalari ish o'rinlarini kengaytiradi. O'zbekistonda sitrus mevalar sanoatini kengaytirish, plantatsiyalar barpo etish, qayta ishlalash zavodlarini qo'rish ham yangi ish o'rinlarini yaratadi. Bundan tashqari olimning Foiz va investitsiya nazariyasida Sitrus bog'lari uzoq muddatli sarmoyalarni talab qiladi. Foiz va investitsiya: Sitrus bog'lari uzoq muddatli sarmoya talab qiladi. Agar foiz stavkalari past bo'lsa, fermerlar va tadbirkorlar ko'proq investitsiya qilishi mumkin. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi: Keynes nazariyasiga ko'ra, bozor o'z-o'zidan muvozanatga kelmaydi. Shuning uchun davlat subsidiyalari, imtiyozli kreditlar yoki soliq yengilliklari orqali sitrus tarmog'ini qo'llab-quvvatlasa, ishlab chiqarish tezroq rivojlanadi. Muallif XXI asrda inson salomatligini ta'minlashda meva-sabzavot mahsulotlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Bu mahsulotlar biologik faol moddalar, vitaminlar va mikroelementlarga boy bo'lib, sog'lom turmush tarzining muhim komponenti hisoblanadi. Kulikov agrosanoat majmuasi (APK)da meva-sabzavot tarmog'ining ilmiy va innovatsion asosda rivojlanishini strategik zarurat sifatida ko'rsatadi. U ilg'or texnologiyalar, seleksiya, yetishtirish va saqlash texnologiyalariga urg'u beradi. Investitsion yondashuv: Tarmoqni rivojlantirish uchun moliyaviy-investitsion resurslarni samarali jalb qilish zarurligi aytiladi. Investitsiyalar nafaqat iqtisodiy foyda, balki sog'lom

jamiyatni shakllantirish vositasi sifatida ham qaraladi. Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat: Meva-sabzavot tarmog'i nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlari yaratadi, qishloq hududlarini rivojlantiradi va aholi salomatligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Muallifning pozitsiyasi: Kulikov ushbu tarmoqni strategik rezerv deb ataydi, ya'ni bu soha orqali sog'lom avlodni tarbiyalash mumkin degan fikrni ilgari suradi. Mamedovning "Антикризисный механизм хозяйствования в АПК России" asari qarashlarida Moliyaviy va strukturaviy sog'lomlashtirish Qarzlarni restrukturizatsiya qilish, ijrochilik va aktivlarning samaradorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish. Tashkilot shakli va xo'jalik strukturasi o'zgarishi — masalan, fermer xo'jalik, korxona, kooperativ shakllarga moslashish. Texnika va texnologiyalarni yangilash, ishlab chiqarish jarayonlarida modernizatsiya qilish borasidagi qarashlari ahamiyatli sanaladi. Mirzayev, Sobirov qarashlarida to'g'ri parvarishlash (sug'orish, o'g'itlash, zararkunandalarga qarshi kurash), kesish va shakllantirish usullari asosiy qarashlarining mezoni sanaladi.

Mamlakatingizda sitrus mevalar yetishtirishni davlat tomonidan tashkiliy rag'batlantirish yo'llari haqida ilmiy maqola yozganingizda, tadqiqot metodologiyasida quyidagilarni kiritishingiz mumkin. Bu metodologiya qaysi usullar bilan ma'lumot yig'ilganini, qanday tahlil qilinganini va natijalar qanday asosda olinganini tushuntiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Adabiyotlarni tahlil qilish, empirik usullar, statistik tahlil, taqqoslash va tahliliy metod. Tadqiqotda avvalo mavzu bo'yicha mavjud ilmiy va rasmiy manbalar tahlil qilindi (literature review). Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirish bilan shug'ullanuvchi fermerlar va mutaxassislar orasida so'rovnoma va intervyular o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinib, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tashkiliy rag'batlantirishning samaradorligi baholandi. Shuningdek, boshqa hududlardagi tajribalar bilan taqqoslash yo'li bilan mazkur rag'batlantirish mexanizmlarining ijobiy va salbiy tomonlari aniqlangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalarni yetishtirish tendensiyasining, sohani rivojlantirish ko'rsatkichlarining istiqbolda o'zgarishini baholash uchun quyidagi omillar tanlandi. Jumladan, Qashqadaryo mintaqasida:

- natijaviy omil (N_1): sitrus mevalar yetishtirish hajmi, tonna;
- natijaviy omil (N_2): sitrus mevalarning chakana savdo bozorining hajmi, mln so'mda;
- ta'sir omili (T_1): sitrus mevalar importi, ming AQSh dollari;
- ta'sir omili (T_2): sitrus mevalar yetishtiruvchi xo'jaliklar soni, ta;
- ta'sir omili (T_3): sitrus bog'dorchilik maydoni, ga;
- ta'sir omili (T_4): sitrus bog'dorchilikda energiya ta'minoti, foiz;
- ta'sir omili (T_5): aholining sitrus bog'dorchilikdan oladigan daromadlari ulushi, foiz;
- ta'sir omili (T_6): Respublikada mintaqaning sitrus mevalar yetishtirishdagi xissasi, foiz.

Keltirilgan omillarning dinamikada miqdoriy o'zgarishlariga oid ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

Keltirilgan omillar bo'yicha o'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalariga e'tibor berilsa, quyidagilarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan,

mintaqada sitrus mevalar yetishtirish hajmi bilan barcha ta'sir omillari kuchli korrelyatsion zichlik hosil qiladi. Mazkur prognoz parametrlari mintaqada sitrus mevachilik istiqbollarning optimistik ko'rsatkichlarini ifoda etmaydi. Shu sababli tadqiqotimizda mintaqada sitrus mevachilik tarmog'ining rivojlanishiga kengroq ko'lamda yondoshuv maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu esa ushbu tarmoq rivoji bilan bog'liq bir qancha omillarni kelajak dinamikada kuzatishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, mintaqada sitrus mevalar importi, sitrus bog'dorchilik maydoni, aholining sitrus bog'dorchilikdan oladigan

daromadlari ulushi, Respublikada mintaqaning sitrus mevalar yetishtirishdagi xissasi kabi omillarning 2025-2030 yillar uchun o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi

1-jadval.

Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirish natijaviyligi va ta'sir omillarining miqdoriy ma'lumotlari

Yillar	Ko'rsatkichlar							
	Sitrus mevalar yetishtirish hajmi, tonna	Sitrus mevalarning chakana savdo bozorining hajmi, mln so'm*	Sitrus mevalar importi, ming AQSh dollari	Sitrus mevalar yetishtiruvchi xo'jaliklar soni, ta	Sitrus bog'-dorchilik maydoni, ga	Sitrus bog'dorchilikda energiya ta'minoti, foiz	Aholining sitrus bog'dorchilik-dan oladigan daromadlari ulushi, foiz	Respublikada mintaqaning sitrus mevalar yetishtirishdagi xissasi, foiz
	N1	N2	T1	T2	T3	T4	T5	T6
2012	947	8227,398	772,1938	153	20	19,8	0,023	1,263
2013	1032	8885,589	818,5254	217	28	22,5	0,023	4,000
2014	1118	9507,581	859,4517	320	43	36,9	0,023	2,857
2015	1245	10363,26	971,1804	320	45	36,9	0,026	2,083
2016	1380	11606,85	1068,298	335	50	37,1	0,028	8,621
2017	1844	13580,02	1143,079	349	65	37,2	0,063	14,286
2018	1850	15481,22	1245,957	350	67	38,6	0,063	10,924
2019	1874	17648,59	1395,471	355	68	38,9	0,064	10,526
2020	1956	20295,88	1548,973	389	70	39,2	0,074	19,000
2021	2451	22528,43	1889,747	401	72	39,3	0,078	19,192
2022	2540	26358,26	2343,287	401	73	40,2	0,083	18,868
2023	2087	30575,59	2835,377	374	52	40,3	0,099	17,857
2024	2067	34547,46	2974,654	393	64	40,9	0,101	18,094

* Ko'rsatkich muallif tomonidan 2021 bazis yilga nisbatan real qiymatlarda hisoblangan.

Manba: O'zbekiston Respublikasi huzuridagi statistika agentligi va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sitrus mevalarning chakana savdo bozorining hajmiga sitrus bog'dorchilik maydoni (0,65) va sitrus bog'dorchilikda energiya ta'minoti (0,63) juft korrelyatsiya ko'rsatkichining o'rta darajalari, bu omillarning ta'siri nisbatan pastroq ekanligini ko'rsatmoqda. Aslida sitrus mevalarning chakana savdo bozorining hajmiga sitrus bog'dorchilik maydonining ta'siri yuqori baholanishi mantiqan o'rinli bo'lsada, mintaqada mahsulot bozorining hajmida asosan import mahsulotlari ulushining yuqori ekanligidir. Energiya ta'minoti bilan bog'liq nisbatan passivlik sitrus mevalar yetishtiruvchi xo'jaliklar soni bilan bog'liq. Haqiqatan, mazkur omillar o'zaro juda yuqori 0,97 korrelyatsion bog'liq. Ya'ni, mintaqada sitrus mevalar yetishtiruvchi xo'jaliklar soni nisbatan ko'p emas va bu miqdoriy passivlik tarmoqda energetika muammolarining kichik doiradagi muammolar sifatida ko'rinishi bilan bog'liq. Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirish hajmi (N_1) hamda sitrus mevalarning chakana savdo bozorining hajmi oldingi rivojlanish tendensiyalarida o'zgarish bo'lmaganda barqaror, tekis o'suvchan, dinamik tezlanmagan holda o'sib boradi. Hususan,

- Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirish hajmi trend qonuniyatlar asosida keyingi 6 yillikda o'rtacha 13,6 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030 yilga borib 2024 yilga nisbatan 2,25 barobarga ortadi;

- Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalarning chakana savdo bozorining hajmi trend qonuniyatlar asosida keyingi 5 yillikda o'rtacha 11,52 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030 yilga borib 2024 yilga nisbatan 1,73 barobarga ortadi.

2-jadval.

Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirish hajmi (N_1) hamda sitrus mevalarning chakana savdo bozorining hajmi (N_2)ning prognoz ko'rsatkichlari (1-ssenariy)

Prognoz yillari	Ko'rsatkichlar	
	Sitrus mevalar yetishtirish hajmi, tonna	Sitrus mevalarning chakana savdo bozorining hajmi, mln. so'm
2025	3142,969	38356,680
2026	3435,862	42967,950
2027	3756,050	47909,160
2028	4106,076	53180,310
2029	4488,722	58781,400
2030	4661,318	60051,473
O'rtacha o'sish sur'ati, foizda	13,61	11,52
2030/2024 nisbat, barobar	2,25	1,73

Manba: muallifning hisoblashlari asosida tuzilgan.

Mazkur prognoz parametrlari mintaqada sitrus mevalilik istiqbollarining optimistik ko'rsatkichlarini ifoda etmaydi. Shu sababli tadqiqotimizda mintaqada sitrus mevalilik tarmog'ining rivojlanishiga kengroq ko'lamda yondoshuv maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu esa ushbu tarmoq rivoji bilan bog'liq bir qancha omillarni kelajak dinamikada kuzatishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, mintaqada sitrus mevalar importi, sitrus bog'dorchilik maydoni, aholining sitrus bog'dorchilikdan oladigan daromadlari ulushi, Respublikada mintaqaning sitrus mevalar yetishtirishdagi xissasi kabi omillarning 2025-2030 yillar uchun o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi (3.3.7-jadvalga qarang).

Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar importi, sitrus bog'dorchilik maydoni, aholining sitrus bog'dorchilikdan oladigan daromadlari ulushi, Respublikada mintaqaning sitrus mevalar yetishtirishdagi xissasi istiqbolda o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi. Jumladan,

- Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar importi keyingi 6 yillikda o'rtacha 22,2 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030 yilga borib 2024 yilga nisbatan 3,32 barobarga ortadi;

- Qashqadaryo viloyatida sitrus bog'dorchilik maydoni keyingi 6 yillikda o'rtacha 10,47 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030 yilga borib 2024 yilga nisbatan 1,51 barobarga ortadi;

Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirish hajmining ortishi ishlab chiqaruvchi subyektlari sonining ortishiga, sitrus bog'dorchilik uchun yer maydonini kengaytirishga bevosita bog'liq bo'lib qoladi. Bu yerda aholining sitrus bog'dorchilikdan oladigan daromadlari ulushining ortishi katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Malakatimiz aholisining sitrus mevalarini iste'mol ko'lami (talab)ning ortishi mintaqalarda sitrus mevalilik tarmog'ini mahalliy kengaytirishga zaruratning ortishiga olib keladi. Mintaqalarning ishlab chiqarish salohiyati, tabiiy iqlimi, istiqbolda tobora kuchayishi kutiliyotgan resurs taqchilligi jarayonga chuqur intensiv yondoshuv asosida innovatsiyalarni joriy qilishni izchillik bilan amalga oshirish talab etiladi. Eng asosiysi mahsulot yitishiruvchi subyektlarning faoliyatini yanada daromadlilik qilishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Keyns, D. M. (1978). *Общая теория занятости, процента и денег*. Moskva.

Kulikov, I. M. (2006). Научная и инновационно-инвестиционная стратегия развития плодо-ягодного комплекса АПК как важнейший резерв в формировании здорового организма человека в XXI веке. Сборник статей. Moskva, 9–31 b., с ил., 157 s.

Mamedov, R. Sh. (2000). *Антикризисный механизм хозяйствования в АПК России*. Moskva: Агро-Пресс, 90 s.

Mirzayev, M. M., Sobirov, M. K. (1987). *Bog'dorchilik*. Toshkent: Mehnat, 207–217 b.

Qurbonov, Sh. (2021). *Sitrus mevalarni tarixiy evolyutsiyasini talqin etish va iqtisodiy rag'batlantirishni jadallashtirish. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni taminlash muammolari ilmiy konferensiya*, 2(20), 241–245 b.

Qurbonov, Sh. (2024). *O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda sitrus mevalarining o'ziga xos xususiyatlari mandarin mevasi misolida. Didactic Innovations in Education International research journal*, 1, 2–8 b.

Qurbonov, Sh. (2024). *Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini tahlili. Conference of natural and applied sciences in scientific innovative research. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi*, 1(9).

Qurbonov, Sh. (n.d.). *Sitrus mevalarini yetishtirishning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi*, 110–113 b.

Qurbonov, Sh. (n.d.). *Sitrus mevalarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni: mandarin misolida tahlil. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi*, 110–113 b.